


**3-CEKCIYA. TILLERDEN AWDARMA JASAW TARAWINDA JÁHÁN ILIM-PÁN
HÁM TEXNOLOGIYASINAN PAYDALANIW**
**SECTION-3. THE USE OF WORLD SCIENCE AND TECHNOLOGY IN THE FIELD
OF TRANSLATION STUDIES**

MAKTAB OQUVCHILARINING KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Abdurazakova Shaydagul – NDPI doktoranti

Til nafaqat reallikni aks ettiradi, balki uni tahlil etadi va shu bilan birga inson yashaydigan alohida muhit (reallik)ni yaratadi. Shu sababli, **tilshunoslik**, til to'g'risidagifan bo'lib, **har qanday gumatitar fan tizimida metodologik o'ringa ega** va uning yordamisiz madaniyatni o'rganishning iloji yo'q.

O'zga til madaniyati bilan tanishish orqali yoshlarning madaniy saviyasini oshirish muammosi hozirgi paytda alohida ahamiyatga ega. Til sohiblari madaniyati bo'yicha chuqur va har tomonlama bilimlarga ega bo'lmasdan xorijiy tillarni o'rganish va ularni xalqaro aloqa vositasi sifatida ishlatish imkonsizdir. Faqatgina ushbu ikki bilim - til va madaniyatning kombinatsiyasi samarali va unumli muloqotni ta'minlay oladi. Xorijiy til vositalari orqali madaniy ma'rifatning zarurligi g'oyasi asta-sekin «aksiomatik» [1] ma'noga ega bo'lmoqda.



Xorijiy tillarni o'qitish bilan bog'liq muammolarni ko'rib chiqishda madaniy jihatdan muvofiqlik prinsipining zamonaviy talqini keng talabga ega. O'zga tildagi muloqotni o'qitish jarayoniga madaniyatni singib borishi haqiqati juda ham yangimas. Bundan tashqari, u xorijiy tilni o'qitish haqidagi fanda shu qadar mustahkam o'rnashganki, uning chinakam ajralmas atributiga aylangan: bugungi kunda tilni madaniyat va madaniyatni til orqali o'qitish ahamiyatini hech kim inkor qilmaydi. O'zga tilni o'qitish metodologiyasi, mafkurasi va texnologiyasiga kirib borish g'oyasi bilim olish, rivojlanish, tarbiya va o'rganish jihatlarida kommunikativ o'zga tilni o'qitish jarayonida talaba tomonidan o'zlashtiradigan insoniyatning umumiy madaniyati bir qismi sifatida o'zga madaniyatni taqdim etadigan Y.I. Passovning nazariyasida o'zining eng yuqori darajasiga yetdi. Muallif «talaba bilim olish, rivojlanish, tarbiyaviy va o'rganish jihatlarida bo'yicha egallagan barcha narsalar o'zga tilni o'qitish tarkibidagi o'zga til madaniyatida birlashtirilgan» deb yozadi [2]. Mazkur milliy-madaniy nuqtai nazarga ko'ra ta'lim strategiyasi - madaniyat «ruhi» bilan singdirilgan bo'lib, «til - madaniyat» o'zaro munosabatlarida madaniy dominantni nazarda tutadi; «inson faoliyati, uning dunyo bilan o'zaro aloqasi «til - madaniyat» birligi egallashni nazarda tutadi» degan postulatga asoslanadi [3]; «til, madaniyat, individuallik va faoliyatning potensial o'zaro bog'liqligi»ni tasdiqlaydi [4]; aynan o'zga til madaniyati dunyosiga kirish talabaning shaxsiyatini o'z madaniyati sub'ekti sifatida rivojlantirishga hissa qo'shishi mumkinligini isbotlaydi [5].

Lingvodidaktika sohasida til va madaniyatni o'qitish g'oyasini amalga oshirishga madaniy jihatdan mos keladigan yondashuvlar yordam beradi. Xorijiy tillarni o'qitish nazariyasida ular kam emas, va ularning soni shu qadar tez o'sib bormoqdaki, differinsiyalash va «yondashuvlarni taksonomik tasniflash, ularni farqlash uchun mezonlarni aniqlash, umumiy xususiyatini» [6] (bu tarzda, afidan, madaniy jihatdan mos keladiganlar soniga tegishli bo'lgan yondashuvning asosiy belgisi sifatida madaniyat bo'lishi kerak) va ma'lum bir farqlovchi belgini ajratish vaqti keldi.

Mamlakat madaniyatini o'rganmasdan xorijiy tilni egallash imkonsizdir. Agar ikkita milliy madaniyatni taqqoslasak, ular hech qachon to'liq mos kelmaydi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bu har biri milliy va xalqaro elementlardan iboratligidan kelib chiqadi. Ushbu elementlarning yig'indisi har bir madaniyat uchun har xil bo'ladi.

Madaniy materiallarni jalb qilish o'rganish motivatsiyasini keskin oshirishi juda muhim,

chunki motivatsiyasiz ta'lim olish samarasizdir [5]. Shu munosabat bilan hal qilinishi kerak bo'lgan bir qator savollar tug'iladi: o'quv muloqot sharoitlarida real tarzda ayni o'rganayotgan xorijiy til madaniyatga oid ta'lim olishi; xorijiy til bo'yicha o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarining madaniy tarkibiga qanday talablar qo'yilishi; o'zga til madaniyati deganda xorijiy til bo'yicha zamonaviy ta'limning ajralmas tarkibiy qismi sifatida nimani tushunishi kerak.

XULOSA VA MUNOZARA

Xorijiy tilni o'qitish jarayonida maqsadlarga erishishning muhim pedagogik sharti sifatida milliy-madaniy yondashuvni hisobga olgan holda, talabalarda tilni o'rganish uchun ijobiy motivatsiyasi borligini aniqlash kerak bo'ladi, bu esa ko'pgina omillar va usullar bilan ta'minlanishi mumkin va nafaqat talabalarga, balki asosan o'qituvchining ijodkorligi va pedagogik mahoratiga bog'liq.

O'zbekistonda tilni o'qitish o'z xususiyatlariga ega – u til orqali talabalarga ko'p asrlik tarix, an'analar va urf-odatlar yordamida shakllangan milliy mafkurani, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni singdirishga asoslangan. Tabiiyki, xorijiy tillarni o'qitishda tillar o'rtasidagi aloqa, va shu bilan birga ular orqali taqdim etilayotgan madaniyatlar, o'sib borayotgan yoshlarning axborot va ta'lim maydoniga begona g'oyalarning kirib borishi muqarrardir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 13 yanvar
2. Qo'ldashev A.T., Odinaev R.Q. Kasbiy kompetentlikni professor-o'qituvchilarda namoyon bo'lishining pedagogik-psixologik mohiyati. "Ta'lim, fan va ishlab chiqarishda intellektual salohiyatli yoshlarning o'rni" mavzusidagi yosh olimlar, magistrant va talabalarining an'anaviy XII respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi m a t e r i a l l a r i. IV qism. Samarqand-2015. –B.5-8.
3. Ziyomuxammedov B. Pedagogika – T.: Turon-Iqbol, 2006. – 112 b.
4. Axmedova L.T., Jalolov J.J., Normuratova V.I., Nabieva K.N. Chet til fanining o'quv dasturi (barcha ta'lim yo'nalishlari uchun). – T.: O'zDJTU, 2013. – B.13-15.
5. Bim I.L. Chet tillarini fan sifatida o'qitish metodikasi va maktab darsligi muammolari. – M.: Rus tili. 2017. - 49 b.
6. https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=jitKS9YAAAJ&citation_for_view=jitKS9YAAAAJ:u-x6o8ySG0sC

THE ROLE PLAYING METHOD IN TEACHING PROCESS

*AdilbaevaZamira 4th year student NSPI,
English language and literature
Dauletbaeva N. Scientific advisor NSPI,
English language and literature*

In recent years, language teaching has focused on the learning process rather than the teaching of the language. The emphasis is not only on linguistic competence of the language learners but also on the development of their communicative ability. In order to develop the learners' communicative ability, the teacher needs to create a scenario to teach the target language in a vibrant, active and interesting manner. Many English teachers are exploring and attempting new and innovative practices in the classroom. They have turned to dialogues, open-ended scenarios, and role plays.

Role playing clearly promotes effective interpersonal relations and social transactions among participants. "In order for a simulation to occur the participants must accept the duties and responsibilities of their roles and functions, and do the best they can in the situation in which they find themselves" [5; 113]. To fulfill their role responsibilities, learners must relate to others in the simulation, utilizing effective social skills.